

## Kadastr Sohasida Qonun Hujjatlaridagi Kamchiliklarni Bartaraf Etish

**Bazarbayeva Go'zal Rustam qizi**

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, Yer kadastr va yerdan foydalanish yo'nalishi talabasi, Qarshi shahri, O'zbekiston Respublikasi

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda kadastr sohasiga oid ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular asosida sohada qanday o'zgarishlar bo'ldi. Kadastr idoralarining asosiy vazifalaridan biri bu – yer va kadastr nazoratini amalga oshirish Bu yo'nalishda Qoraqalpog'iston Respublikasida qanday ishlar amalga oshirildi? Qancha qonun buzilish holatlarini aniqlandi va bartaraf etish choralari ko'rildi.

**Kalit so'zlar:** onlayn-auksionga, avtomagistralining, A-380 xalqaro avtomagistralining, ko'chmas mulkning.

Mamlakatimizda har bir yo'nalishda izchil islohotlar davom etmoqda. Kadastr xizmatlarini ko'rsatish, yer va kadastr nazorat ishlarini olib borish yo'nalishi ham shular jumlasidandir bilan shu mavzuda suhbatlashdik. Haqiqatdan So'nggi yillarda kadastr sohasiga oid ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shuni alohida ta'kidlab o'tishim kerak, qabul qilinayotgan me'yoriy huquqiy hujjatlarda Qoraqalpog'iston Respublikasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Birgina misol, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 avgustda “Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur'atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan birinchi bosqichda (2022-2023-yillarda) Qoraqalpog'iston Respublikasida, ikkinchi bosqichda (2023-2024 yillarda) qolgan hududlarda aholi xonadonlarini mahallabay tahlil qilib, uy-joyga egalik huquqini tasdiqlovchi kadastr hujjatiga ega bo'lmagan xonadonlarning elektron ro'yxatini shakllantirish va A-380 xalqaro avtomagistralining xavfsizlik mintaqasidan tashqaridagi yo'l bo'yicha o'rmon xo'jaligi fondidagi yer maydonlarini tuman (shahar) zaxira yer fondiga qaytarib, yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan savdo va servis obyektlarini joylashtirish maqsadida mazkur yer maydonlarining elektron onlayn-auksionga chiqarilishi belgilangan. Mazkur Farmonda ko'rsatilgan rejalarga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida uy-joyga egalik huquqini tasdiqlovchi kadastr hujjatiga ega bo'lmagan xonadonlarning elektron ro'yxatini shakllantirildi va shu yili 723 ta yer uchastkasi uy-joy qurish maqsadida elektron onlayn-auksionga chiqarildi. Shuningdek A-380 xalqaro avtomagistralining xavfsizlik mintaqasidan tashqaridagi yo'l bo'yicha o'rmon xo'jaligi fondidagi yer maydonlarini tuman (shahar) zaxira yer fondiga qaytarib, yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan savdo va servis obyektlarini joylashtirish maqsadida mazkur yer maydonlarini onlayn-auksionga chiqarilish bo'yicha hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadastr agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi tomonidan shu kunga qadar jami 555 ta holat (467,6 ga) yer qonun buzilish holatlari aniqlandi va shundan 316 ta holatni (100,2 ga) bartaraf etdik undan 239 ta holatni (367,4 ga) bartaraf etish choralari ko'rmoqdamiz. Shuningdek yer qonun buzishlar yuzasidan 92 ta holatda sud jarayonlari davom etmoqda va 19 ta holatni jinoyat alomatlarini borligi uchun Prokuratura organlariga taqdim

etganmiz. Yer qonun buzilish holatlarini oldini olish borasida nimalarga ko'proq e'tibor berilmoqda? Xabaringiz bor yer qonun buzilish holatlarini bartaraf etishda va fuqarolarimizga o'zboshimchalik bilan yer egallash noqonuniy ekani tushuntirish uchun joylarda kelishilgan reja asosida sayyor qabullar va fuqarolar bilan muntazam uchrashuvlar tashkil qilyapmiz va ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda qonun buzilishi ko'p kuzatilgan hududlarda o'rganishlar olib borib turibmiz, bu haqida o'zimizning va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda yoritib boryapmiz. Asosiysi fuqarolarimizning yerga bo'lgan huquqlarini to'g'ri tushuntirish va yerga oid qonun hujjatlari bilan tanishtirish va oqibatlari haqida xabardor qilish deb bilaman. Shu kungacha aniqlangan holatlarning aksariyat fuqarolarning bilmasdan turib o'zganing qo'lidan qalbaki hujjatlari bor yerlarni noqonuniy sotib olishlari, ular bilib-bilmay noqonuniy holatni qonuniy qilib hujjatlashtirib bo'lmasligini bilmasligi oqibatida shunday vaziyatlar yuzaga keladi. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi tizim xodimlari tomonidan shahar va tumanlarda uyma-uy xatlov o'tkazish ishlari olib borildi va aniqlangan 46 842 uy-joyga huquqi mavjud bo'lmagan mulk egalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya Vazirligi bilan hamkorlikda mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha loyiha tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Unda ko'chmas mulkning joylashgan yer turi va manzillari shuningdek imorat qurilgan yillar ham inobatga olinadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek 46 842 obyekt ichida turar joylar, noturar joylar va yer uchastkalari ham mavjud.

Hozirda yuqorida ta'kidlab o'tilgan mulk egalari mulkiga egalik qilish huquqini berish tartibi ishlab chiqilmoqda. Kadastr sohasiga tegishli bo'lgan fuqarolarning masalalarini o'rganish, muammolarini tegishli hal qilish maqsadida har olti oylik rejamizda sayyor qabul o'tkazish tasdiqlangan. Shu rejaga muvofiq shahar va tumanlarda kadastr filiallari bilan birgalikda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari o'rganiladi.

**Xulosa:** Yer sohasiga qaratilgan e'tibor, qabul qilingan har bir qonun, qaror va farmonlar yer hisobini to'g'ri yuritish, uni asrab-avaylash va ertangi avlodga bus-butun yetkazib berishga qaratilgan. Yurtimizdagi «Inson qadri» tamoyili asosida qilinayotgan har bir harakat albatta o'z natijasini berishga aminman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF6024-son Farmoni. 2020 yil 10 iyul
2. Shoxo'jayeva, Z. S., & Norqobilov, M. (2020). Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. In НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 25-28).